

## XX-ASR O‘ZBEK JADID ADABIYOTINING XORIJDA O‘RGANILISHIDA I. BALDAUFNING O‘RNI

Sa’dullayeva Dilnoza Nortoqi qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Olmon olimasi I. Baldaufning XX-asr o‘zbek jadid adabiyoti haqidagi izlanishlari tahlilga tortildi. I. Baldaufning o‘zbek yozuvchilari va kitobxonlari bilan o‘rnatgan aloqasi haqida so‘z yuritildi. Olimaning o‘ziga xos uslubi borasidagi ma’lumotlar esa o‘quvchini o‘ziga tortadi.

**Kalit so‘zlar:** Ma’ruza, rivoyat, qadriyat, ma’rifat, maqola, tarix, ma’naviy meros, an’ana, ijod, fikr, hamjihatlik.

O‘tmishni o‘rganish, tarixga hurmat tuyg‘usi xalqning o‘zligini anglashidagi juda muhim omillardan hisoblanadi. Xalqning madaniy qadriyatlari va ma’naviy merosi asrlar mobaynida sharq xalqlari uchun kuchli manaviyat manbai sifatida xizmat qilgan. Ko‘p vaqtlar davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, xalqimiz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga erisha oldi.

Keksa tarix o‘tmish yukini yelkasida opichlab avlodlarga yetkazar ekan bu uzun yo‘lda ko‘plab voqealar, insonlar shunchaki unutilib yo‘qlikka yuz tutadi. Davonlar osha bizga bo‘y ko‘rsatuvchi o‘tmish esa buyuk ishlarni, buyuk insonlarni hech qachon bag‘ridan uzmaydi. Aytish mumkinki o‘lkamiz buyuklarni kam ko‘rmagan. Dunyoga Buxoriy, Beruniy, Bobur kabi daholari bilan tanilgan. Bu ro‘yhatni o‘nlab, yuzlab insonlar nomi bilan davom ettirishimiz mumkin. Ularning qilgan ishlarini o‘rganish va avloddan avlodga yetkazish esa savobli burchdir. XX-asr o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish ham shunday muhim vazifalarimizdan biridir.

XX-asr o‘zbek jadid adabiyoti nafaqat yurtimizda, balki, xorijda ham izchil o‘rganilgan. Xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijda Edward Allworth, Elen de Enkaus, Ingeborg Baldauf, Hisao Komatsu, Temur. Kojauglu, Yusuf Avji kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekistonda O, Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimov, H. Boltaboyev, B Do‘stqorayev, N Vlademerovna, I G‘aniyev, U. Jo‘raqulov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Bu olimlarning izlanishlari haqida so‘z yuritganda Olmon taniqli olimasi I. Baldaufga alohida to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Olimaning “XX-asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar” nomli to‘plami Turkiston jadidchilik tarixi va uning mashhur namoyondalari ijodiga bag‘ishlangan. Bu to‘plamga Ingeborg Baldaufning Fitrat, Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon haqidagi qarashlari saralab olingan. Xorijlik mutaxassisning fikr va mulohazalari nafaqat adabiyotshunoslik fanimiz, balki, o‘quvchilar uchun ham qiziqarlidir.

Olmon olimasi Ingeborg Baldaufning ilk bor Toshkentga kelganligi va dorilfunun talabalari bilan uchrashgani haqida Ozod Sharaffiddinov shunday deydi; “ Men uni auditoriyaga boshlab kirib, tanishtirdim. Baldauf xonim keng va yorug‘ xonani to‘ldirib o‘tirgan talabalarni ko‘zdan kechirdi-da, ma‘ruzasini boshladi. Men uning XX-asr boshidagi o‘zbek adabiyoti bilan va ayniqsa, jadidlar ijodi bilan shug‘ullanishidan xabardor edim, lekin olima gapni qadimiy rivoyatdan boshladi.

Emishki, Olloh Arshi-a‘lodagi jamiki maloika va farishtalariga do‘zaxni tomosha qildiripti. Do‘zaxdagi bir joy ularni hayron qildiripti. U joydagi gulhan kattaroq, olov yanada gurillagan, do‘zaxiyalar duchor bo‘ladigan qiynoqlar ming chandon dahshatliroq ekan.

- Bu joy kimga atalgan, Parvardigori olam?- deb so‘rashibti maloikalar.

-Chala mullalarga!-deb javob beribti Olloh.

- Negaki, chala mullalik gunohlar ichida eng battaridir. Bu chala mullaning kasri minglab odamlarga uradi.

Rivoyatni eshitib, boshimdan hushim uchib, hang-mang bo‘lib qoldim”deydi Ozod Sharaffiddinov.

Bu voqeadan ko‘rinadiki I. Baldauf o‘zbek tilida ravon so‘zlay olgan. Yozuvchilarimiz asarlarini o‘zbek tilida asl nusxalardan o‘qib fikr yuritgan. Behbudiydan bahs yuritadimi, Avloniyni tilga oladimi, Munavvarqori haqida gapiradimi barchasining shaxsiyati va ijodiga yuksak hurmat bilan qaraydi. O‘zbek tilidagi asarlarni o‘qish uchun eski arab yozuvini o‘rganadi. Yana bir e‘tiborli jihati shundaki, u o‘z izlanishlarida qanday fakt tilga olsa, qandaydir voqeani tavsif qilsa bu ma‘lumot qayerda berilganligi, qaysi matnga asoslanganligini aniq ko‘rsatib o‘tadi. Asarlarida sanalar, asarlar nomlari, joy nomlari, odamlar nihoyatda e‘tibor bilan o‘rganilgan, qayta-qayta tekshiruvdan o‘tgan. Olimada chinakam ilmiylikning talablari mujassamlashgan.

Olmon olimasining O‘zbekistonga mehri shunchalikki, yil ora yurtimizga tashrif buyuradi, simpozium, konferensiyalarni sabab qilib o‘zbek kitobxonlari, tadqiqotchilari bilan suhbatlarda bo‘ladi, o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadi. Samarqand va Buxoro kabi qadimiy maskanlarni ziyorat qiladi. O‘zbek kitobxonlarining fikri bilan qiziqish shu bilan birga o‘z rejalari bilan o‘rtoqlashish olimaning o‘ziga xos hislati desak adashmagan bo‘lamiz. Uning o‘zbek ziyolilari bilan o‘rnatgan do‘stligi-ku alohida tahsinga loyiq. Begali Qosimov va Sunnatillo Ahmedov kabi olimlar Baldauf xonimning taklifi bilan bir necha bor Germaniyaga borishadi. Bu safarlarning birida Baldauf Xonim Germaniyaliklarning mehmondo‘stligi o‘zbeklardan qolishmasligini ko‘rsatadi. Mayda jihatlariga ham ahamiyat berib kutib oladi. Nihoyatda sergak uy bekasi ekanligini namoyon qiladi. Dasturxonga tortilgan qovrilgan go‘shning musulmon qassobdan olinganini-yu “Bismillloh” bilan so‘yilganligini aytadi.

Baldauf xonim asosan XX-asr birinchi choragidagi yozuvchilar faoliyatini tatqiq etgan. I. Baldauf “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda” nomli maqolasida Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati va “Sayohat xotiralari”ning muallif ijodida hamda Rusiyadagi jadidlar harakati doirasida tutgan o‘rni bilan boshlaydi. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘rta Osiyodagi

barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik namoyonda sifatida talqin qiladi. Behbudiyning “Oyna nima?” degan maqolasida o‘zgaga qarab o‘zni ko‘rish, yutuq va kamchiliklarni his etish vazifasini ko‘ndalang qo‘yilganligini ta’kidlaydi. “Oyna shunday bir narsaki, odam unga o‘zini ko‘rish, yuzining qandayligini ko‘rish uchun qaraydi. Yuzi esa, turli fizik va psixik omillar ta’sirida qizil, sariq, qora yoki oq bo‘lishi mumkin. Kishi oynaga nogahoniy payqab qolishi mumkin bo‘lgan dardlarini davolash uchun qaraydi”, deya so‘z yuritadi. Maqolada Behbudiyning “Do‘stlar bir birining oynasidir” degan maqolni tez tez takrorlashini va bu bilan achchiq haqiqatlardan do‘stlar xafa bo‘lmasligini istaganini aytadi.

Behbudiyning “Mahmudxo‘ja Behbudi Falastinda” deb nomlangan maqolasi haqida I. Baldauf shunday fikrlarni yozadi; “Ma’rifatga yuz burish, xo‘jalik yuritishda ilg‘or zamonaviy yutuqlardan foydalanish, dunyo bilan hamjihatlik, madaniy muassasalarni kengaytirishni yurtdoshlariga uqtirmoqchi bo‘ladi.”

Olimaning o‘z ishini sevishi va o‘zbek jadid adabiyotiga bo‘lgan muhabbati ilmiy izlanishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir asar va ijodkorga hurmat bilan qaraganligi tahsinga loyiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish.. –T.: Ma’naviyat, 1999.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik.-T.:A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2007.
3. Boltaboyev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi.f.f.d.ilmij darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati.T: 1996.
4. Ingeborg Baldauf. XX-asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar.. –T.:Ma’naviyat, 2001.
5. Zulxumor Mirzayeva. XX-asr o‘zbek adabiyotining Amerikada o‘rganilishi.. –T.:Fan,2011.